

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-omnabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limida o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubi	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantirishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'limni tashkil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джураев А. С. “Адаптив таълим” ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'limoti	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабинович хакида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Asanova U. S. Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumslarin shólkemlestirivdiń ózine tán ózgeshelikleri	148
Isaqov J. A. Grafik ta'lim samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiy imkoniyatlari	152
Isaqov J. A. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari	157
Polotov K. K. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi	162
Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И. Бўлғуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўқув тезаурусидан фойдаланиш	167
Azatova S. N. Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida	173

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӨРБИЯ

Shanasirova Z. Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish yo'llari	179
Xurvaliyeva T. L. Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish	185
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	189
Teshabayeva Z. S. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li	194
Nosirova R. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari	198
Xidoyatova N. A. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	204
Karimjonova D. A. Maktabgacha ta'lim muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantirishning interaktiv metodlari	208
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari	213
Abdijaborova S. Q. Milliy harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	218
Soatov E. M. Harakatli o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jihatlari	222
Abdijaborova S. Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari	227
Ismanova M. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari	231
Atabekov F. O. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi	237
Buriyeva A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish	241
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni	244
Abduraximov D. D. Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish	248
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati	252
Xodjaxonova K. X. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari	257
Pesova L. A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish	261
Abdullayeva L. U. Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish	267



ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYASI

Atabekov F. O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.

Tayanch so'zlar: maktabgacha yoshdagi bola, jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy tarbiyaning shakllari, jismoniy tarbiyaning vazifasi, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, dastur.

Ключевые слова: дошкольник, средства физического воспитания, формы физического воспитания, задача физического воспитания, ловкость, быстрота, выносливость, программа.

Key words: preschool child, means of physical education, forms of physical education, the task of physical education, agility, agility, endurance, program.

Bolalarning jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishi salomatlikning asosiy tarkibi hisoblanadi. Bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik sifati zamonaviy usul va shakllarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan to'g'ri qo'yilganligiga bog'liqdir.

Inson hayotining birinchi yetti yilligida bolalar sog'lig'ining asosiga zamin tayyorlanadi, hayotiy zaruriy harakat malakalari shakllanadi, takomillashadi, keyinchalik jismoniy rivojlanish uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlar yuzaga keladi. MDH davlatlari olimlaridan, Shelovanova, Aksariynoy, Sorochek, Uvarov, Bikovlarni tadqiqotlarini natijalari shuni ko'rsatadiki bolaning jismonan chiniqqan, chaqqon, kuchli bo'lib o'sishi uchun o'z vaqtida to'g'ri rejalashtirilgan jismoniy tarbiya jarayoni muxim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini noto'g'ri baholash bola organizmini rivojlantirishni susaytiribgina qolmay, uni aqliy rivojlanishiga ham salbiy ta'siri ko'rsatishini jismoniy tarbiya amaliyoti isbotlab berdi.[4]

Bolaning organizimi tez rivojlana boshlaydi. Lekin organizmning himoya refleksi sust rivojlangan bo'ladi, nisbatan kasalga tez chalinadi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vazifasi – ularning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, chiniqtirish, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, gavdani to'g'ri tutish, umumiy va shaxsiy gigienaga e'tibor beradigan qilib voyaga yetkazishdir.

Eng ahamiyatlisi ularda hayot uchun zaruriy eng oddiy harakat malakalarini– yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, velosipedda, rolikli chang'ida, konkida yurish, yugurish, suzish va samoqat va velosipedda yurishlarni



rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi. Bunga sabab ularning nerv sistemasini elastikligini yuqoriligidir. Oddiy harakat malakasi keyinchalik kattaroq yoshga o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlardan chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirishga imkoniyatlar katta.

Levi Gorinevskayani tekshirishiga qaraganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yishda qiyinroq bo'lgan umumjismaniy mashqlar, 1-sinf dasturiga yaqin bo'lgan, unga tayyorlaydigan mashqlar tanlab olinadi.[3]

Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida bu yoshdagi bolalarda chaqqonlik, tezlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlari tarbiyalanadi. Ularni anatomo-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olganimizda chaqqonlik va tezlik sifatlarini tarbiyalashning imkoniyati ularda boshqa sifatlarga nisbatan ko'proq bo'ladi, aksincha kuch va chidamlilik harakat sifatlarini tarbiyalashga esa extiyotkorlik zarur. Lekin bu sifatlarni rivojlantirish umuman to'xtatib qo'yilmaydi, chunki kuch va chidamlilik elementlari har bir harakat faoliyati uchun zarur, bu sifatlar tarbiyachini xohishsiz ham boshqa harakat faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. Yurish, sakrash, uloqtirishdek harakatlar tarkibida bu sifatlar baribir namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asab tizimini egiluvchanligi, jismoniy sifatlarni teng rivojlantirishga yaxshi imkoniyat yaratadi. Chunki asab tizimidagi qo'zg'alish va tormozlanish biri ikkinchisi bilan tez almashinish qobiliyati bilan bog'liq. Ayniqsa harakatli o'yinlar davomida oldindan rejalashtirilmagan, o'yin faoliyati uchun zarur bo'lgan favqulotdagi harakatlarni bajarishga to'g'ri keladi va ular qisqa vaqt ichida bir-biriga o'z o'rnini tez almashinishi bilan namoyon bo'ladi. Bu esa chaqqonlik sifatini oson rivojlantirishga sharoitni yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bo'yin, qorin, orqa, bel muskullari kuchsiz bo'lib, ularda qomat yaxshi rivojlanmaydi. Shunga ko'ra shu guruh muskullarini rivojlantirish uchun (yurish, yugurish, tanani bukib to'g'rilab bajaradigan) mashqlarni tanlab olish, ularni yurish tezlashini orttirish, boshqa harakat sifatlariga nisbatan yuqori ko'rsatgichga erishishi mumkinligini ifodalashdan iborat bo'ladi. Bola kundalik hayotida uchraydigan jismoniy mashqlarni bajarishda, jismoniy mehnatda qiyinchilikka uchragan bo'lar edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mashq berishdan oldin, ularga o'sha mashqning ahamiyatini, bajarish texnikasini, ozgina bo'lsa ham harakatli o'yin qoidalarini, umumiy va shaxsiy gigiena qoidalarini, tanani tarbiyalashning ayrim elementlarini o'rgatilib borilishi lozim. Bu yoshdagilarga jismoniy mashqni o'zi mustaqil va guruh bilan bajarishga o'rgatish ko'nikmalari berib boriladi. O'zidan kichik guruhlarda jismoniy mashqlarni bajarishga o'rgatish, o'zini sport razryadini o'sayotganiga va katta sportchilar natijalariga qiziqishga, do'stlik, o'zaro yordam, o'yinchoqlarga nisbatan munosabat masalasi, axloq normalarini



rivojlanishiga e'tibor beriladi. Ularda jismoniy tarbiyani shunday yo'lga qo'yish kerakki, o'sha yoshi uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar, aqliy, axloqiy va estetik didni tarbiyalash bilan qo'shib olib borilsin.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy uslublari

Harakatga o'rgatish eng kichik yoshdan boshlanadi. Bu esa hayot uchun kerakli malaka va ko'nikmalarni osondan qiyin didaktik tamoyili asosida, ketma-ketlikda, asta-sekinlik bilan olib boriladi va jismoniy tarbiya haqida eng sodda bilimlar, shaxsiy, umumiy gigiena qoidalari talablariga bo'ysunishga o'rgatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi umumiy o'qitish uslublari asosida olib boriladi va o'qitishning quyidagi – onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, kuchiga yarashalik va individuallashtirish, tizmlilik, talabalarini oshirish tamoyillariga tayanadi.

Bolani harakatga o'rgatishda:

ko'rgazmalilik uslubiylatida bajarilishi kerak bo'lgan harakat, ko'rgazmali qurol orqali ko'rsatiladi, taqlid qilinadi va narsalar turgan tomonlarga qarab bajarish uchun mo'ljall beriladi.

so'z yordamida ko'rsatib tushuntiradi, buyruq yordamidan, aytib berish, so'rash va boshqa uslubiylatlardan foydalaniladi.

mashq qilish uslubiylati – harakatni bajarish shartini o'zgartirmasdan va o'zgartirib bajarishdan foydalaniladi.

o'yin va musobaqa uslubiylati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga statik harakterdagi jismoniy mashqlar berish tavsiya etilmaydi. Bu mashqlar nerv tizimi va muskullarni to'ldiradi, qon aylanish va nafas olishini buzadi, to'liq muskul qisqarishini talab qiladigan kuch mashqlari muskul va nerv bo'g'inlarini ishlarini susaytiradi. Yoshi ulg'aygan sari jismoniy mashqlar ham o'zgartiriladi va qiyinlashtiriladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalar yordamida sust harakatlari, faol harakat elementlari umumijismoniy mashqlar (jihozli va jihozsiz, chalgancha yotish bilan, o'mbaloq oshish bilan, boshni har tomonga burishlar) emaklashlar, yugurishga tayyorlovchi mashqlar, balandlikka chiqish va eng sodda o'yinlardan foydalaniladi. Bu yoshdagilar dasturida asosiy o'rinni uqalash (masaj) egallaydi.

Bir yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda sal qiyinroq bo'lgan umumijismoniy mashqlar, jisimli va jisimsiz (to'p, yog'och, gimnastika o'rindig'i), asosiy harakatlari (yurish, yugurish, muvozanat saqlash mashqlari, chuqurlikka sakrash), saflanishning eng oddiy mashqlari, velosipedda yurish, suzishni o'rganishga tayyorlov mashqlari beriladi. Dasturda bu yoshdagilar uchun kerakli harakatli o'yinlar va raqs mashqlariga kengroq joy ajratilgan. Olingan o'yinlar bu yoshdagilar uchun qoidasini soddaligi g'olibni aniqlashni osonligi bilan farqlanadi va asosan turli obrazlar timsolida, taqlid tarzida o'ynaladi (qushlar hayvonar va h.k.). 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalardagi mashg'ulotlarga o'rgatiladi, amalda esa uni bolalar faoliyatini tashkillashning "frontal" uslubi deb aytishadi.



Masalan, bajarilishi kerak bo'lgan mashqni ayrim elementlariga ko'proq e'tibor beriladi. Uzoqqa uloqtirishni ko'rsatayotib oldin dastlabki holatga, so'ng qolgan elementlarga e'tibor beriladi.[2]

Bolalarda kattalarga nisbatan tez va yengil shartli aloqa vujudga keladi, lekin ularni tez-tez qaytarib turilmasa, bu shartli aloqa mustahkam bo'lmaydi. Harakat malakasini mustahkamlash uchun uni ko'p takrorlayverish, tolishini vujudga keltiradi. Shuning uchun qaytarishni xilma-xil variantlarda takrorlash lozim. Mashqni takroriy bajarishlar faqat o'zlashtirilayotgan material texnikasi haqida shug'ullanuvchi mukammal tasavvurga ega bo'lgandan so'ngina amalga oshiriladi. Harakat malakalarini mustahkamlashhar xil sharoitda – o'yin, musobaqa, turli-xil topshiriqlarni bajarish shaklida amalga oshiriladi. “Kim shu mashqni yaxshi bajara oladi”, “Kim bayroqchaga tez yugurib borib qaytib kela oladi”, “To'pni kim uzoqroqqa ota oladi” yoki “Mo'ljalni ura oladi” kabilar. Jismoniy mashqlarni o'rgatishdagi o'zigaxoslik o'qitish uslubiylatlarini o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.[5]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda taqlid qilish, ko'rib to'rgan narsaga, yoki o'sha narsaga yoki oshqasiga, uni teskarisiga, pastga, balandga, orqaga va h.k. deb mo'ljalga olish, o'yin usullarini kiritish, o'qitishni emotsionalligini oshiradi. Maxsus bilimlarni bu yoshdagilar diafilpmlardan, kino, mashqni tushuntirayoganda eshitayotib, harakat texnikasini, harakatli o'yinlar qoidalarini o'rganishda foydalanadilar va shu bilan bir qatorda shaxsiy va umumiy gigienik tushunchalarga ega bo'lib boradilar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O’RQ-637-son.
2. Salamov R.S. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiylati”. 1 jild. Darslik. ITA- PRESS. T. 2014 yil. 297 b.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. Учебник. Москва. – 1991 г. 200 с.
4. Частоедова А.Ю. Теория и методика физической культуры, спорта. Учебное пособие. Т., 2020 г. 416 с.
5. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T.,- 2005 y. 300 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tarbiyasi, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy uslublari, bolalarni harakatga o'rgatish metodlari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о физическом развитии, физическом воспитании детей младшего и дошкольного возраста, основных методах физического воспитания детей младшего и дошкольного возраста, методах обучения детей движению.

SUMMARY

This article describes the physical development, physical education of children of primary and preschool age, the main methods of physical education of children of primary and preschool age, methods of teaching children to move.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

№ 1/1

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшесі №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйырtpa №